ZIYORAT TURIZMINI RIVOJLANTIRISHNI DAVLAT TOMONIDAN QO‘LLAB-QUVVATLASH MEXANIZMINI BOZOR TAMOYILLARIGA MOSLASH YO‘LLARI

Qodirova Xolida Salimovna

Toshkent davlat agrar universiteti katta o‘qituvchisi

Annotatsiya. Mazkur maqolada ziyorat turizmini rivojlantirishni davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash mexanizmini bozor tamoyillariga moslash yo‘llari keltirilgan. Joylardagi ziyoratgohlarning salohiyatidan to‘laqonli foydalanish, ularning imkoniyatlarini baholash, raqamli dastur va platformalar orqali reklama qilish hamda onlayn sayohat qilish ko‘lamini kengaytirish masalalari bayon etilgan. Ziyorat turizmini rivojlantirishga doir xulosalar berilgan.

Kalit so‘zlar: turizm, madaniy meros obyektlari, hududlar infratuzilmasi, ziyorat, ziyoratchi, ziyorat turizmi, tarixiy obidalar turizmi, ekologik turizm.

Annotation. This article presents ways to adapt the mechanism of state support for the development of pilgrimage tourism to market principles. Issues of full-fledged use of the potential of shrines in places, assessment of their capabilities, promotion through digital programs and platforms and expansion of the scope of online travel are described. Conclusions are given on the development of pilgrimage tourism.

Keywords: tourism, objects of cultural heritage, infrastructure of Regions, pilgri mage, Pilgrim, pilgrimage tourism, heritage tourism, ecological tourism.

Аннотация. В данной статье представлены пути адаптации механизма государственной поддержки развития паломнического туризма к рыночным принципам. Изложены вопросы полноценного использования потенциала мест паломничества, оценки их потенциала, продвижения через цифровые программы и платформы, а также расширения охвата онлайн-путешествий. Даны выводы о развитии паломнического туризма.

Ключевые слова: туризм, объекты культурного наследия, инфраструктура территорий, паломничество, паломник, паломнический туризм, туризм исторических памятников, экологический туризм.

Kirish

Jahon amaliyotiga ko‘ra, har bir davlatning iqtisodiy rivojlanishining hozirgi sharoitida innovatsiyalar, resurstejovchi texnologiyalar va inson salohiyatidan samarali foydalanish farovonlik va ishlab chiqarish omillarining eng muhim manbalaridan hisoblanadi. O‘zbekiston ham bundan mustasno emas. Bunday sharoitda aholining turmush sifati mamlakat va uning hududi ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishiga, shu jumladan dam olish darajasi, uning sifati, qulayligi va muntazamligiga bog‘liq.

ISSN 3030-3907

Butun dunyoda iqtisodiyotning turizm sohasi o‘zini mamlakatning iqtisodiy taraqqiyoti va gullab-yashnashiga xizmat qiluvchi, jadal rivojlanayotgan soha sifatida namoyon etmoqda. Biroq turizm sohasining barqaror rivojlanishiga asoslangan turizm salohiyatidan samarali foydalanishga tayangan mamlakatlardagina rekreatsion resurslardan foydalanishning iqtisodiy samarasi uzoq muddatli va barqaror bo‘ladi. Bu quyidagi ijtimoiy-iqtisodiy va ekologik natijalar: mamlakatning tabiiy va tarixiy-madaniy merosini saqlash, mahalliy aholining hayot sifatini oshirish bilan birga keladi.

Ekologiya muvozanatli holatda bo‘lishi yoki hatto yaxshilanishi va tabiiy rekreatsiya resurslari yil davomida tiklanishi kerak. Keyin ijtimoiy-iqtisodiy va ekologik tanazzulga uchraydi.

Bunga tabiiy va tarixiy-madaniy meros yo‘qolib borayotgani, sayyohlik oqimlari va tarmoq daromadlari kamayib, aholining turmush sifati pasayib borayotgani sabab bo‘lmoqda. Bularning barchasi ushbu sohaning iqtisodiy tarkibiy qismi rivojlanishi pasayishiga olib keladi. Bunday ssenariyning oldini olish uchun ilmiy asoslangan metodologik yechimlar, shuningdek mamlakat ichida sayyohlik va rekreatsion salohiyatdan innovatsion foydalanish bo‘yicha amaliy tavsiyalar zarur.

ADABIYOTLAR SHARHI

Bugungi kunda sohada ilmiy izlanish olib borgan olimlar va o‘z tadqiqotlarini davom ettirayotgan tadqiqotchilar ziyorat turizmini davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash masalasini birinchi o‘ringa qo‘yishi hamda sohada hali yechimini kutayotgan muammolar mavjud ekanini ta’kidlaydi. Jumladan,

Xorij olimlarining ilmiy izlanishlari o‘rganilib tahlil qilinganda, M.C.Pardo o‘z tadqiqot ishida Portugaliyaning ziyorat turizmi hududlarini ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishda strategik omil sifatida Lotin Amerikasi tajribasini mamlakatda qo‘llashda ziyorat turizmi marshrutlarini loyihalash, ishlab chiqish va amaliyotga asoslangan sayyohlar uchun maxsus ziyorat obyektlari onlayn marshrutlarini ishlab chiqqan. Bu orqali ziyorat turizmi strategiyalari, mamlakat siyosati, yaratilgan shart-sharoitlar, xizmat ko‘rsatish sifati, mehmonxona xizmatlari va boshqalar yuzasidan to‘liq ma’lumot olish imkoni yaratilgan. Bizning fikrimizcha, har bir hudud kesimida ziyorat turizmi marshrutlarini ishlab chiqish, aholining e’tiqod erkinligini ta’minlash, loyihalash, rejalashtirish va ulardan foydalanishda davlat sektorini yetarli darajada ishtirok etishi ta’minlanadi. Shuningdek, mavjud ziyorat turizmi yo‘nalishlarini takomillashtirishga sezilarli ta’sir ko‘rsatib, hududning turizm salohiyatini oshirishga, sayyohlar oqimining ko‘payishi, aholining ish bilan bandligini ta’minlash va turizm infratuzilmasining yaxshilanishiga olib keladi.

ISSN 3030-3907

T.Korov, M.Sostar, B.Andrliselar o‘z tadqiqotlarida ziyorat turizmini barqaror rivojlantirish va turizm salohiyatini oshirishga qaratilgan ilmiy yondashuvlarni taklif etgan. Ya’ni, ziyorat turizmini strategik boshqarish tamoyillari asosida tashkil etishga aniq ilmiy yondashuvlar mavjud emasligi hamda ularni bartaraf etishda ziyorat turizmini hozirgi holatini baholash, muammolarni aniqlash, madaniy meros obyektlaridan foydalanish samaradorligini oshirish bo‘yicha o‘zlarining nazariyalari va strategik boshqarish modellarini asoslab berishgan. Ushbu ziyorat turizmini strategik boshqarish nazariya va modeli mavjudligi turizmni iqtisodiy o‘sishiga, madaniy-ma’rifiy tadbirlarni tashkil etish va jamiyatni barqaror rivojlanishiga xizmat qiladi. Darhaqiqat, ziyorat turizmini strategik boshqarish jarayonini bir tizim, bir maqsad yo‘lida tashkil etish va manfaatdor tomonlar o‘rtasidagi munosabatlarni muvofiqlashtirish, madaniy merosni qadrlashni rivojlantirish, iqtisodiyotni yaxshilash orqali qishloq joylardagi aholining daromad topishi va turizm bo‘yicha mavjud imkoniyatlaridan samarali foydalanish mumkin bo‘ladi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqot jarayonida tizimli yondashuv, tahlil va sintez, statistik guruhlash, monografik tahlil, qiyosiy tahlil, ekspert baholash, SWOT-tahlil, korrelyatsion-regression tahlil, iqtisodiy-matematik modellashtirish, prognozlash usullari qo‘llanilgan.

TAHLIL VA NATIJALAR

O‘zbekistonda turizm sohasi strategik jihatdan muhim va ustuvor hisoblanadi. Ushbu sohani 2025-yilgacha rivojlantirish yo‘nalishlari tegishli Konsepsiyada bayon qilingan bo‘lib, u qulay iqtisodiy shart-sharoitlarni yaratish, ichki turizmni jadal rivojlantirish uchun ustuvor maqsad va vazifalarni ishlab chiqish, uning roli va ijtimoiy sohadagi hissasini oshirish, iqtisodiyotni diversifikatsiya qilish va ko‘rsatilayotgan xizmatlar sifatini oshirish, shuningdek mamlakatda turizm infratuzilmasini takomillashtirish bo‘yicha amalga oshirilayotgan islohotlar samaradorligini oshirishga qaratilgan. Bu ustuvor yo‘nalishlar zamiridagi vazifalardan biri ijtimoiy, madaniy, ma’rifiy, ekologik, etno-madaniy, ziyorat va qishloq turizmi dasturlarini ishlab chiqish va amalga oshirish hisoblangan, respublikada turizm xizmatlariga ehtiyojni qondirishga yo‘naltirilgan turizm subyektlari faoliyatini rag‘batlantirishni ta’minlovchi ichki turizmni rivojlantirishni aks ettiradi.

2022–2026-yillarga mo‘ljallangan yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasida “O‘zbekiston bo‘ylab sayohat qiling!” dasturi doirasida mahalliy sayyohlar sonini 12 million nafardan oshirish hamda respublikaga tashrif

ISSN 3030-3907

buyuruvchi xorijiy turistlar sonini 9 million nafarga yetkazish va turizm sohasining rivojlanishini strategik maqsadlardan biri sifatida belgilab berildi.

Bugungi kunda turizmning ziyorat, ma'rifiy, ekologik, etnografik, gastronomik, sport, davolash-sog'lomlashtirish, qishloq, sanoat, ishbilarmonlik va boshqa innovatsion turlari mahalliy sayohatchilar tomonidan faollik bilan qabul qilinmoqda

Masalan, respublika fuqarolarining faol dam olishini tashkil etish (shaharda yurish, terrenkur, trekking va xayking), kasallanish darajasini, shu jumladan yurak xastaliklarini kamaytirishni nazarda tutuvchi "piyoda turizm marshruti" loyihasi amalga oshirilmoqda.

Fikrimizcha, hozirgi sharoitda sayyohlar va ularga xizmat ko'rsatuvchi xo'jalik yurituvchi subyektlar uchun belgilangan karantin choralari shart-sharoitlaridan kelib chiqib, turizm sohasida turistlarning ehtiyojlarini sifat va miqdor jihatidan qondira oluvchi turli xil yangi innovatsion yondashuvlarni shakllantirmasdan va amalga oshirmasdan yirik shaharlar va qishloq joylarda turizm salohiyatini to'liq ro'yobga chiqarish mumkin emas.

Shuni e'tiborga olgan holda, ishning ushbu bo'limida biz ichki turizmning yangi innovatsion shakllarini tashkil etish uchun O'zbekiston hududlarining sayyohlik salohiyatidan foydalanish bo'yicha yondashuvlarni aniqladik. Koronavirus pandemiyasi va uning oqibatlari respublikaning mavjud sayyohlik salohiyati, ichki sayohat uchun yangi innovatsion yo'nalishlarni joriy etish va shu bilan ichki turizmni rivojlantirish imkonini beruvchi boshlang'ich nuqtadir.


Mazkur turizm sohasi innovatsion faoliyatni o'rganish uchun juda keng imkoniyatga ega. Chunki u murakkab tarmoqlararo ijtimoiy-iqtisodiy tizimni ifodalaydi. Turizmning bu turi nafaqat yangi mahsulot yoki xizmatni yaratadi, balki boshqaruvning boshqa sohalarida joriy etilgan yangiliklardan ham foydalanadi. Turizm sohasidagi yangi innovatsion mahsulotlar O'zbekistonning ma'lum bir hududida ichki turizmni rivojlantirish muammolarini hal qilishga yordam berishi kerak.

Iqtisodiy adabiyotlarni o'rganish ko'rsatdiki, yangi innovatsion mahsulotlarni ishlab chiqishda ichki turizm salohiyatidan foydalanish sohasidagi tadqiqotlarning o'ziga xos xususiyatlari asosan qo'llaniladi. Buning sababi shundaki, umumiy tamoyil va usullar butun turizm sanoatining tashrif buyuruvchilar va mahalliy sayyohlarga qaratilgan masalalarini amaliy hal qilishga yo'naltirilgan. Shu sababli, bugungi kunda ushbu sohada turli xil loyiha yechimlarini amalga oshirish dolzarb yo'nalish hisoblanadi. Masalan, bugungi voqelikka muvofiq, uning mavjud an'anaviy shakllarini takomillashtirishni olaylik. Respublikada mavjud iqtisodiy, tabiiy va madaniy salohiyatdan samarali foydalanish va yangi innovatsion turizm

ISSN 3030-3907

mahsulotlarini yaratish va targ‘ib qilish jarayonini faollashtirish masalasi muhim ahamiyatga ega.

O‘zbekistonda ham mahalliy, ham xorijlik sayyohlar sonini ko‘paytirish vazifasini amalga oshirish maqsadida “Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi”ga muvofiq, bir qator vazifalar, jumladan, mamlakatimizda to‘siqsiz turizm infratuzilmasini joriy etish belgilangan, mamlakatning asosiy turizm shaharlari, turizm va madaniy meros obyektlari infratuzilmasini rivojlantirish ulardan samarali foydalanish davlat dasturida qabul qilinadi. Bundan tashqari, Zomin, Forish, Baxmal tumanlari va Aydar-Arnasoy ko‘llar tizimida qo‘shimcha turizm zonalari va dam olish maskanlarini barpo etish rejalashtirilgan. Qoraqalpog‘iston Respublikasi va Orol bo‘yida, Navoiy viloyatida ekoturizm rivojlantiriladi, shuningdek respublikada ziyorat turizmini rivojlantirish salohiyati samarali amalga oshiriladi.




1-rasm. Ichki ziyorat turizmi trendlari

Ushbu rejalarning 2024–2025-yillar davomida amalga oshirilishi respublikada mavjud turizm turlarini takomillashtirish, shuningdek mamlakat hududlarida ularning yangi shakllarini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Qoraqalpog‘iston mintaqasining ziyorat turizmini o‘ziga xos xususiyatlarini aniqlash va uni rivojlantirish istiqbollarini belgilash hamda davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash maqsadida ularni o‘rganish amalga oshirilishi lozim bo ‘lgan ishlarni tadbiq etish mumkin. Bu jarayonda, turli din va aholi qatlamlari vakillarini

ISSN 3030-3907

nafaqat ziyorat, balki ular tashrif buyurgan joylarning tarixiy, madaniy va badiiy qadriyatlari bilan tanishtirish imkoniyatini beradi (2-rasm).



2-rasm. Turizmni davlat tomonidan qo‘llab quvvatlanish mexanizmi

XULOSA VA TAKLIFLAR

Ziyorat turizmini bozor tomoyillariga moslashda rivojlantirish indikatorini aniqlash va ularning sifat darajasini baholash, ziyoratgohlarning zanjirsimonligini inobatga olgan holda ular negizida zamonaviy turizmni uyg‘unlashtirish maqsadga muvofiqdir. Ziyorat turizmini bozor munosabatlariga uzviy bog‘lash hududda tarqoq joylashgan ziyorat qadamjolarida “aqlli ziyorat hududi” ni shakllantirish natijasida ziyorat hududini obodonlashtirish, unda milliy uslubdagi va halol standartlari asosida mehmonxonalar qurish, ichi va yon-atrofini ko‘kalamzorlashtirish, halol umumiy ovqatlanish maskanlarini yaratish, musulmonlar uchun zarur yordamchi xonalarni tashkil etish, sovg‘alar va boshqa

ISSN 3030-3907

buyumlarni sotish uchun savdo zonasi qurish talab etiladi. Bu esa bozor munosabatlari sharoitida eng maqbul yechim hisoblanadi.

Agar biz yuqoridagi ziyorat turizmi sohasining faoliyatini samarali rivojlantirishga erishsak, quyidagi natijalarni qo‘lga kiritamiz:

- mintaqaning yalpi hududiy daromadi soha hisobiga oshiriladi;
- mintaqa byudjetining soliq to‘lovlari va boshqa to‘lovlarning o‘sishi hisobiga to‘ldiriladi;
- mintaqa aholisining ish bilan ta’minlanishi, yangi ish o‘rinlarining yaratilishiga erishiladi;
- chet mamlakatlar kapitali sohaga jalb etilishiga va valyuta tushumining ko‘payishiga erishiladi;
- ziyorat turizmi sohasini rivojlantirish barobarida davlatning boshqa sohalarini ham rivojlantirish imkoniyati tug‘iladi;
- ziyorat turizmi infratuzilmasi va industriyasini rivojlantirishga erishiladi;
- mahalliy va xorijiy ziyoratchilarning dam olish tuzilmalarini isloh qilishga erishiladi.

Bularning hammasi pirovardida mintaqada ziyorat turizmini rivojlantirish evaziga hudud iqtisodiyotini yuksaltirishga, aholining iqtisodiy-ijtimoiy hayotining o‘nglanishiga, ularning yashash darajasi va sifatining oshirilishiga erishiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1.2021-yil 9-fevraldagi PF-6165-son “O‘zbekiston Respublikasida ichki va ziyorat turizmini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi farmoni.

2. M.C.Pardo and others. Developing Pilgrimage Tourism in Latin America: Lessons Learned from the Camino de Santiago // International Journal of Religious Tourism and Pilgrimage. Volume 11. Issue 4. 13th Annual IRTP Conference, Vilnius, 2022. 12 p.

3. T.Korov, M.Costar, B.Andrlice. The model of strategic management of a religious tourism destination in function of sustainable development // International Journal of Professional Business Review. Miami, v. 9n. 2024. 49 p.

4. Dr. Kaustav Chatterjee. Modern Tourism Development through Sustainable Tourism Approach: A Case study of Pilgrimage Tourism in Varanasi.// International Journal of Creative Research Thoughts (IJCRT) www.ijcrt.org 2022 IJCRT Volume 10, Issue 5 May 2022 | ISSN: 2320-2882. 12 p.

5. T.Handriana, P.Yuliantiand ва M.Kurniawati. Exploration of pilgrimage tourism in Indonesia // Journal of Islamic Marketing. Emerald Publishing Limited 1759-0833. DOI10.1108/JIMA-10-2018-0188. 3 April 2019. 13 p.

ISSN 3030-3907

6. Е.В.Печерица, Е.Е.Шарафанова. Паломнический туризм: сущностные аспекты. // ФБГОУ ВО«Санкт-Петербургский Государственный экономический университет Санкт-Петербург, Россия(191023, Санкт-Петербург, улица Садовая, дом21.), e-mail: helene8@yandex.ru

ISSN 3030-3907